



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10977461>

JDPU Xamrayeva Nazira Ravshanovna

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kundagi ta'limdagi pedagogika innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

### АННОТАЦИ

В данной статье описаны особенности использования инновационных технологий в педагогике в современном образовании.

### ABSTRACT

This article describes the specific features of the use of innovative technologies in pedagogy in today's education.

### Kalit so`zlar

texnologiya, pedagogik texnologiya, aspekt, metodika.

### Ключевые слова

технология, педагогическая технология, аспект, методика.

### Keywords

technology, pedagogical technology, aspect, methodology.

Pedagoglarning ish amaliyotida ba`zida texnologik qurilgan o'qitish metodlari emas, balki foydali bo'lsa-da allaqachon o'zlashtirilganlar "*pedagogik texnologiya*" tushunchasi bilan belgilanadi.

Aslini olganda, *pedagogik texnologiya* - bu o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha (innovatsiya) yondashuvidir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muxandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya deganda, texnologik (ishlab chiqarishdagi) yondashuvlarga aynan o'xshash bo'lgan ta'limda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatlangan (yakuniy natijani olish) ta'lim jarayoni tushuniladi. Bunday ta'lim jarayoni *texnologiyalashtirilgan* deyiladi.

- *Texnologiya*- biror ishda, mahoratda, sanoatda qo'llaniladigan usullar. Yo'llar yig`indisi. (izohli lug`at.)



• *Texnologiya*- ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi.(V.M.Shepel'.)

*Pedagogik texnologiya*- o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarining maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi) ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka) majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat.(B.T.Lixachyov.)

*Pedagogik texnologiya* - ta'lim metodlari, usullari, yo'l-yo'riqlari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir. Bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini ko'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir. Demak, pedagogik texnologiya insonga ( ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat. (J.G.Yo'ldoshev.)

*Ta'lim texnologiyasi*- ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshiish, Aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi. (O.Tolipov.)

*Pedagogik texnologiya* - ta'lim berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash ularni yagona tizimga keltirish, yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyatlaridan muvofiq foydalanib, bilimlar o'zlashtirilishining eng maqbul jarayonidir.

*Yangi pedagogik texnologiyalar* - psixologik va pedagogik bilimlar tarmog'ida mustaqil fan sifatida shakllanishi va bu fanning o'rni, mohiyati, fanning tarkibi, maqsadi hamda vazifalari respublikamizdagi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonuni asosida yuqori malakali oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashga muvofiq belgilangan.

Pedagogik texnologiyalarning mezonlari.

- a) Shaxsiy faoliyatli yondoshuv.
- b) Tanqidiy-ijodiy fikrlash.
- c) Qaror qabul qilish.
- d) Jamoada hamkorlikni qaror toptirish.

Oqitish texnologiyasini belgilash- bu kasbiy faoliyat sohasidagi talimiy va takomillashish samarasini taminlovchi oquv jarayonini meyoriy boshqarib turishdir.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspekti togrisida fikr yuritiladi: ilmiy, tavsifiy, amaliy.



• Ilmiy aspektda oqitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi hamda pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

• Tavsifiy aspektda rejalashtirilgan oqitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

• Amaliy aspektda pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi.

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi:

Umumpedagogik texnologiya\_yaxlit talim jarayonini ifoda qiladi

Xususi predmetli texnologiya bir fan doirasidagi oquv - tarbiya jarayoniamalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat boladi.

Lokal (modul) texnologiya oquv tarbiya jarayonining maxsus didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

*Metodika*-o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi. Pedagogik tizim jarayonlar, vositalar majmuasiidan iborat bo'lib, o'quvchilarda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirishga pedagogik ta'sir etishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshiradi.

Pedagogik tizim komponentlari:

- Ta'lim (tarbiya) maqsadi.
- Ta'lim (tarbiya) mazmuni.
- Didaktik jarayonlar.
- Ta'lim (tarbiya) ning tashkiliy shakllari.
- O'qitishning texnik vositalari.
- O'quvchi va o'qituvchi hamkorligi.

Ta'lim prinsiplari.

Ta'lim maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

1) Tasvir shaklida. Masalan, ilmiylik prinsipi fan va o'quv predmeti o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Bu erda ilimiylik printspi tasvir orqali baen qilinadi.

2) Qoida shaklida. Masalan talimda oddiydan murakkabga qarab boriladi. Bu jumladan tushunarlik prinsipi qoidasiga asoslangan, yani normallashtirilgan. Talim prinsiplari qoida shaklini olavergan sari, ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari ham kengayaveradi.

Talim-tarbiya jarayonining didaktik nuqtai nazardan takomillashuvi faqatgina ushbu jarayonni tashkil etish va boshqarish yo'llarini to'g'ri tanlash bilan ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyani bosqarish uzida ikki yo'nalishni mujassamlashtiradi:

Faoliyatni boshqarish;



Talabalar jamoasini boshqarish.

Muammo – bu ilmiy bilish zarurligini ifodalasning subektiv shaklidir.

Muammoli talim - talim jarayonida muammoni (vazifalarni) qo'yish va ularning o'quvchilar tomonidan yechilishi bo'lib hisoblanadi.

Muammoli vaziyat - bu o'quvchiga tanish bo'lgan ma'lumotlar, yangi faktlar va hodisalar o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish ushun harakatlantiruvshi kushdir.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko'p uchraydigan usullari qayd etilgan: hodisalar, o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar qo'yish;

- olingan bilimlarning amaliy tadbiqu usullarini topish uchun muammoli vazifa qo'yish;

- o'quvchilarni hodisalar va faktlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishlarga undash;

- ilmiy tushunchalari va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradigan fakt va hodisalarni tahlil qilishga undash;

- fakt hodisa, xatti-harakatlar, xulosalarni solishtirish, qiyos qilishga undash;

Yuqoridagilar kelib chiqib o'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va yechimini topib beradi, qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmunini ifodalaydi. Keyin o'quvchilarni muammo yechimini mustaqil izohlashga yo'naltiradi. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchilar bu vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashadi. O'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning yechimini ko'rsatib aytadi, balki unga o'quvchilarni yo'naltiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avlayev O.Y., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.R. "Ta'lim metodlari" T. "Navro'z". 2017

2. Asadova Y.M., Burxonova G.T. «Psixologik tashxis metodikalari» -T, 2001 y.

3. Jalolova G. «Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish». -T. 2004 y

4. G'ulomov S. Axborot tizimlari va texnologiyalari. -T.: «Sharq», 2000 y.

5. Maraximov A.R., Raxmanqulova S.I. Internet va undan foydalanish. -Toshkent, 2001 y.

6. Abduqodirov A., Xaitov A., Rashidov R. Axborot texnologiyalari. - T.: «O'qituvchi», 2002 y.



7. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish – T.: “Fan va texnika” 2008 y.

**FOYDALANILGAN INTERNET MANBALARI RO'YXATI:**

8. <https://minikar.ru/uz/horoscopes/razvitie-detei-doshkolnogo-vozhrasta-sovremennye-metodiki-ili/>
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarga-bilim-berishda-pedagogik-texnologiyalarning-ahamiyati-nutq-o-stirish-mashg-ulotlari-misolida/viewer>